



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 6 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	9
3.	QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i>	14
4.	MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i>	17
5.	INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	20
6.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	23
7.	O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	25
8.	УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i>	28
9.	ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i>	33
10.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	37
11.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	42
12.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i>	46
13.	O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i>	50
14.	TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	57
15.	DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI <i>Imomov Xamdilla Xamdavovich</i>	61
16.	O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i>	63

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIALASHTIRISH YO'LLARI

Yuldashev Fozil Turapovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
v.b.professori., PhD
YuldashevFozil@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada transformatsiya jarayonlari sharoitida tijorat banklarining tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirishdagi o'rni va ularning moliyaviy ko'mak mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion moliyaviy xizmatlar, onlayn kreditlash tizimlari, raqamli hisob-kitoblari va fintech platformalarining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda bank sektorini modernizatsiya qilish, raqamli infratuzilmani kengaytirish hamda tadbirkorlarni moliyalashtirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar statistik ma'lumotlar asosida baholanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslashlar asosida milliy bank tizimida moliyalashtirish mexanizmlarini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, tadbirkorlik sub'ektlari, moliyalashtirish mexanizmlari, kichik biznes, iqtisodiy samaradorlik, raqamli transformatsiya, Enterprise Resource Planning (ERP), mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (CRM), strategik CRM, operatsion CRM, analitik CRM, aralash (qo'shma) CRM, Business Performance Management (BPM), onlayn kreditlash, fintech, raqamli infratuzilma

Abstract: this article analyzes the role of commercial banks in financing entrepreneurial entities under transformation processes and examines the mechanisms of their financial support. The study highlights the importance of innovative financial services, online lending systems, digital payment solutions, and fintech platforms in supporting entrepreneurial activity. Statistical data are used to assess the reforms being implemented in Uzbekistan aimed at modernizing the banking sector, expanding digital infrastructure, and improving financing procedures for entrepreneurs. Based on comparative analysis with the experience of developed countries, the article proposes scientific and practical recommendations for enhancing the effectiveness of financing mechanisms within the national banking system.

Keywords: commercial banks, entrepreneurial entities, financing mechanisms, small business, economic efficiency, digital transformation, Enterprise Resource Planning (ERP), Customer Relationship Management (CRM), strategic CRM, operational CRM, analytical CRM, hybrid (combined) CRM, Business Performance Management (BPM), online lending, fintech, digital infrastructure.

Абстрактный: В статье дается глубокий анализ роли коммерческих банков в развитии малого бизнеса в цифровой экономике, механизмов их финансовой поддержки, а также новых возможностей, создаваемых цифровыми технологиями. Исследование раскрывает важность инновационных финансовых услуг, онлайн-кредитования, цифровых систем расчетов и финтех-решений в финансировании малого бизнеса. Также на основе статистических данных будут изучены проводимые в Узбекистане реформы по поддержке малого бизнеса посредством цифровой инфраструктуры, существующие проблемы и пути их преодоления. В научной работе представлен сравнительный анализ на примере опыта развитых стран и деятельности коммерческих банков Узбекистана. В результате были разработаны практические рекомендации по укреплению сотрудничества банков и малого бизнеса в условиях цифровой экономики и повышению эффективности деятельности малого бизнеса за счет цифровых финансовых сервисов.

Ключевые слова: коммерческие банки, субъекты предпринимательства, механизмы финансирования, малый бизнес, экономическая эффективность, цифровая трансформация, Enterprise Resource Planning (ERP), управление взаимоотношениями с клиентами (CRM), стратегическая CRM, операционная CRM, аналитическая CRM, смешанная (комбинированная) CRM, Business Performance Management (BPM), онлайн-кредитование, финтех, цифровая инфраструктура

Kirish (Введение/Introduction).

Transformatsiya jarayonlari sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tijorat banklarining tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Raqamli transformatsiya mexanizmi amaldagi me'yoriy-huquqiy baza, strategik rivojlanish maqsadlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini biznes jarayonlariga kompleks integratsiya qilish usullari majmuasini anglatadi. Mazkur jarayon kichik biznes sub'ektlarining faoliyatida raqamli infratuzilmaning samarali qo'llanilishiga, moliyaviy xizmatlarning sifati va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli tizimlarning alohida elementlarini izchil, muvozanatli va maqsadga muvofiq holda tashkil etish transformatsiya jarayonining muhim sharti hisoblanadi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va bank xizmatlarini modernizatsiya qilishga doir nazariy-amaliy masalalar ilmiy hamjamiyatning e'tiborida bo'lib, bu borada turli yondashuvlar taklif qilinmoqda. Ayniqsa, menejmentning yetakchi roli, bank va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni

optimallashtirish hamda raqamli xizmatlar integratsiyasining samaradorligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Kichik biznesning rivojlanish holati va mavjud muammolarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish tadbirkorlik sub'ektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli yechimlarni qo'llash orqali biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish, mijozlar bilan ishlash sifatini yaxshilash hamda barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish kichik biznesning iqtisodiy faolligini oshirish va uning iqtisodiy muhitdagi barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Transformatsiya jarayonlarida tijorat banklarining tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirishdagi o'rni ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Adabiyotlarda bank moliyalashtirish tizimining modernizatsiyasi, raqamli transformatsiyaning bank xizmatlariga ta'siri, kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishiga doir moliyaviy mexanizmlar hamda yangi

axborot texnologiyalarining ahamiyati alohida yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Xususan, G.M. Aubakirova va hamkorlarining tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ta'siri alohida ta'kidlanadi. Mualliflar raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha platformalarini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan strategik omil ekanini qayd etib, transformatsiya sharoitida bank tizimi uchun ham mazkur texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ta'kidlashadi. [1] Ushbu yondashuv tijorat banklarining tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirish jarayonlarida raqamli infratuzilmani rivojlantirishni talab etadi.

M. Lapucta kichik biznesni qonunchilikda belgilangan me'yorlar asosida bozorda faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektlar sifatida tavsiflaydi. [2] Bu yondashuv kichik biznesning bank-moliya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Transformatsiya sharoitida banklar aynan shu segmentni moliyalashtirish bo'yicha innovatsion tizimlarni tatbiq etishi lozim. U.V. Gafurov kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish jarayoni iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga mos ravishda o'zgarishi lozimligini ta'kidlaydi. [3] Unga ko'ra, banklar tomonidan qo'llaniladigan moliyalashtirish mexanizmlari ham iqtisodiy transformatsiyaning real talablariga moslashgan bo'lishi kerak. Bu fikr tijorat banklari uchun kredit mahsulotlarini diversifikatsiya qilishning nazariy asosini yaratadi. B.Yu. Xodiyev va S.K. Salayevlar kichik biznes rivoji tendensiyalarini matematik modellashtirish va bashoratlash bo'yicha ilmiy qarashlarni ilgari surishgan. [4] Ularning tadqiqotlari kichik biznesning moliyaviy barqarorligini shakllantirishda banklarning kreditlash strategiyasini optimallashtirish muhimligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xorij tajribasini bank moliyalashtirish tizimiga kompleks integratsiya qilish bo'yicha izlanishlar yetarli emasligi qayd etiladi. A. O'lmasov va M. Sharifxo'jayevlar tadbirkorlikni faqat daromad olish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi jarayon sifatida baholaydilar. [5] Bu fikr banklarning moliyaviy qo'llab-quvvatlash strategiyalarida tadbirkorlik faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi. Q. Muftaydinov kichik biznes subyektlarini iqtisodiy harakatlantiruvchi kuch sifatida baholab, ularning bozor iqtisodiyotida takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashdagi rolini asoslagan. [6] Mazkur yondashuv transformatsiya sharoitida banklar tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning tizimli mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyotning institutsional jihatlari hali ham to'liq tadqiq etilmaganligi qayd etilgan. Ayniqsa, kiberfazo va raqamli muhitni tartibga solish masalalari bo'yicha konseptual yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. [7] Bu holat tijorat banklari uchun raqamli xavfsizlikni ta'minlash, moliyaviy operatsiyalarni himoyalash va ishonchlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha tadbirlarni talab etadi. Xalqaro olimlar (Schwab, Brynjolfsson, McAfee va boshqalar) raqamli texnologiyalar bank xizmatlarining samaradorligini oshirishda asosiy omil ekanini ta'kidlashadi. [8] Onlayn kreditlash, raqamli skoring tizimlari, BPM va CRM modellaridan foydalanish tadbirkorlik sub'ektlari uchun yanada tezkor va moslashtirilgan moliyaviy xizmatlarni taqdim etishga imkon berishi ilmiy isbotlangan. Fintech yechimlari, ERP tizimlari va CRMning turli modellarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda (Payne, Frow, Kaplan, Norton) ushbu texnologiyalarning bank jarayonlarini optimallashtirishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. ERP bankning ichki jarayonlarini integratsiyalashga, CRM esa mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. [9] OECD, World Bank va boshqa xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida rivojlangan davlatlarda kichik biznesni moliyalashtirishning kafolat fondlari, kredit reyting tizimlari, davlat subsidiya mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlanishi yoritilgan. [10] O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni moslashtirish tijorat banklari uchun transformatsiya jarayonida kredit siyosatini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining transformatsiya sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish strategik ahamiyatga ega.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur ilmiy maqolada tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash

va prognozlash, ekonometrik modellashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты. Analysis and results).

O'zbekiston iqtisodiyotida bo'layotgan iqtisodiy, raqamli va institutsional transformatsiya jarayonlari tijorat banklari faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari ham yangi sharoitlar, ya'ni bozor tamoyillari, raqobatning kuchayishi, risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari asosida qayta ko'rib chiqilmoqda. Mazkur tahlil transformatsiya davrida banklarning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi asosiy imkoniyatlari va yo'nalishlarini yoritadi.

1-jadval

Mamlakatimizdagi ayrim tijorat banklarining investitsion faoliyatining tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ta'siri tahlili¹

№	Banklar nomi	01.01. 2020	01.01. 2021	01.01. 2022	01.01. 2023	01.01. 2024	01.01. 2025
1	“Agrobank” ATB	272,4	1607,8	2378,3	1889,8	1047,0	2764,70
2	“Milliybank” AJ	783,7	1742,0	2510,0	2726,0	8797,5	9798,00
3	“Asakabank” AJ	597,7	1295,3	1498,8	2313,7	14004,0	2278,90
4	“Ipoteka-bank” OTP	261,9	892,2	1224,1	4046,3	2496,3	4847,40
5	“Trastbank” XATB	300,7	688,6	1410,4	1413,5	1713,0	2013,00
6	“Sanoatqurilishbank” ATB	181,9	592,3	1207,2	2894,1	2449,7	5238,20
7	“Xalq banki” AT	211,9	513,8	3268,1	4150,2	4343,3	8414,50
8	“Aloqabank” AT	88,7	411,9	508,3	885,5	366,1	2505,50
9	“Ipak Yo'li”AITB	26,4	291,1	352,1	1536,2	1045,1	2661,30
10	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB	15,3	235,4	841,1	1277,5	1509,0	2245,80
Jami		3012,2	9447,8	19633,8	31508,1	31889,9	57105,9

Keltirilgan jadval 2020–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish hajmining dinamikasini aks ettiradi. Transformatsiya jarayonlari kuchaygan mazkur davrda kreditlash hajmlarining keskin o'sishi, ayrim yillarda esa notekis o'zgarishi bank tizimidagi institutsional va moliyaviy islohotlarning faol ta'sirini ko'rsatadi.

Umumiy ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilda jami 3 012,2 mlrd so'm bo'lgan kreditlar hajmi 2025 yilga kelib 57 105,9 mlrd so'mga yetgan. Ya'ni, besh yil ichida kreditlash hajmi 19 barobardan ortiq oshgan, bu esa transformatsiya davrida tadbirkorlikni moliyalashtirish tizimida fundamental o'zgarishlar amalga oshganini bildiradi. Bunday keskin o'sish banklar faoliyatida bozor mexanizmlarining kuchayishi, davlat tomonidan berilgan imtiyozli dasturlarning kengayishi, shuningdek raqamli infrastrukturaning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq.

Banklar kesimida ko'rib chiqilganda, 2020–2025-yillar davomida eng katta o'sish sur'atlari bir qator yirik banklarda kuzatilgan. Jumladan, “Milliy bank” AJning kreditlash hajmi 2020 yildagi 783,7 mlrd so'mdan 2025 yilda 9 798,0 mlrd so'mga yetib, jiddiy o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Bu bankning eksportchilar, sanoat korxonalarini va yirik tadbirkorlik subyektlariga yo'naltirilgan strategik kredit mahsulotlarini kengaytirgani bilan izohlanadi.

“Xalq banki” AT ham transformatsiya davrida kreditlash hajmini sezilarli ravishda oshirib, 2020 yildagi 211,9 mlrd so'mdan 2025 yilda 8 414,5 mlrd so'mga yetgan. Ayniqsa 2022–2025-yillarda bunday o'sish bankning ijtimoiy yo'nalishdan tijorat yo'nalishiga o'tish jarayoni muvaffaqiyatli olib borilganini ko'rsatadi.

“Sanoatqurilishbank” ATBda ham kreditlash hajmining keskin o'sishi kuzatilgan bo'lib, 2020 yildagi 181,9 mlrd so'm 2025 yilga kelib

¹ Muallif ishlanmasi

5 238,2 mlrd so'mga yetgan. Ushbu bank qurilish, sanoat va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha yetakchi o'rin egallab kelmoqda.

Aksincha, ayrim banklarda kreditlash hajmining yillar bo'yicha keskin tebranmalari kuzatiladi. Masalan, "Asaka bank" AJ 2024 yilda 14 004 mlrd so'mlik kredit ajratgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich 2 278,9 mlrd so'mga tushib ketgan. Bu bankning qayta tashkil etilishi, restrukturalizatsiya jarayonlari yoki kredit portfelini optimallashtirish siyosati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yirik banklardan biri bo'lgan "Agrobank" ATBda ham kreditlash hajmi yuqori darajada o'zgaruvchan bo'lib, 2020 yildagi 272,4 mlrd so'mdan 2025 yilda 2 764,7 mlrd so'mga o'sish kuzatilgan. Biroq 2023–2024 yillarda kredit hajmining qisqarishi bankning risklarni qayta baholashi yoki kreditlash siyosatini optimallashtirish jarayonidan dalolat beradi.

Kichik va o'rta banklar qatoriga kiruvchi "Ipak Yo'li" AITB, "Aloqabank", "Trustbank", va "Biznesni rivojlantirish banki" ATBlarda ham kreditlash hajmlari o'sish trendini namoyon qilgan bo'lsa-da, ularning umumiy bozorga ta'sir darajasi nisbatan past bo'lib qolmoqda. Biroq bu banklarning tadbirkorlik segmentidagi faolligi transformatsiya sharoitida raqobatning kuchayishini bildiradi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022–2025-yillar oralig'ida bir qator banklarda kreditlash hajmining keskin oshishi aynan transformatsiya davridagi raqamli bank xizmatlariga o'tish, imtiyozli kredit dasturlari, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kuchayishi, shuningdek tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining faol amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liq.

Natijada, 2020–2025-yillar davomida tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga moliyalashtirish tizimi sifat va miqdor jihatdan sezilarli o'zgarishlarga duch kelgan. Ishonchli kreditlashtirishning kengayishi, banklar faoliyatining diversifikatsiyasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish kreditlash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Jadvaldagi o'sish dinamikasi ushbu jarayonning transformatsiya davri uchun xos bo'lgan notekis, ammo izchil rivojlanish tendensiyalarini yaqqol namoyon qiladi.

Jumladan, 2020–2025-yillar davomida tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmining sezilarli darajada o'sishi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligi, xususan aktivlar rentabelligi (ROA) darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan omillardandir. Kredit portfelining kengayishi, uning tarkibidagi yuqori rentabelli loyihalar ulushining ortishi va moliyaviy vositachilikdagi transformatsiya jarayonlari ROA ko'rsatkichining shakllanishida asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'ladi. 2020–2025-yillar davomida banklarning tadbirkorlik subyektlariga ajratgan kreditlari 3 012,2 mlrd so'mdan 57 105,9 mlrd so'mga qadar o'sdi. Bu jarayon banklarning foizli daromadlar bazasining keskin kengayishiga olib keldi. Aktivlarning katta qismi aynan kredit portfelidan iborat bo'lganligi sababli, tadbirkorlik kreditlarining o'sishi bilan aktivlar rentabelligi o'zaro uyg'un ravishda oshib borgan.

- Yirik banklar ("Milliy bank", "Xalq banki", "Sanoatqurilishbank") kredit portfelini 5–10 barobarga oshirgan bo'lib, bu ularda ROA ko'rsatkichining sezilarli oshishiga xizmat qilgan.

- O'rta banklar ("Agrobank", "Ipoteka-bank", "Asakabank")da kreditlash hajmining notekis o'sishiga qaramay, kreditlar tarkibidagi rentabelli loyihalar ulushining ortishi ROA darajasini ijobiy lashtirgan.

Demak, kredit portfelining o'sishi aktivlar rentabelligining oshishiga asos yaratgan, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlagan va natijada tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish qobiliyatini yanada kengaytirgan.

Bank aktivlarining rentabelligi yuqori bo'lishi kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Daromadlilik oshgani sari bank kapitali tezroq shakllanadi, bu esa kreditlash limitlarini kengaytiradi. Risklarni qoplash zaxiralari (qarzdorlikka qarshi rezervlar) shakllanishi osonlashadi, bu esa tadbirkorlik sektoriga nisbatan ehtiyotkorlik darajasini pasaytiradi. Bank likvidligi mustahkamlanadi, bu esa o'rtacha va uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishga sharoit yaratadi. Narxlash (pricing) siyosatida moslashuvchanlik ortadi – banklar foiz stavkalarini pasaytirishi mumkin, bu tadbirkorlikni yanada faollashtiradi. Shunday qilib, ROA o'sishi banklarning kreditlash salohiyatini oshiradi va tadbirkorlik subyektlari uchun moliya resurslarini yanada qulay qiladi.

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib aytish mumkinki, kredit portfeli ortishi bilan birga ayrim banklarda kreditlarning notekis o'sishi yoki keskin tebranishi ROAga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Masalan, "Asakabank" ning 2024 yildagi keskin o'sishdan so'ng 2025 yilda kredit hajmini 6 barobardan ortiq qisqartirishi rentabellik

ustuvorligining pasayganidan dalolat beradi. "Aloqabank"da 2023–2024 yillarda kreditlar hajmining kamayishi bankning aktivlar rentabelligi va likvidlik ko'rsatkichlarida noaniqliklar bo'lganligini ko'rsatishi mumkin. "Ipak Yo'li" AITB va "Biznesni rivojlantirish banki" kabi banklarda kredit portfelining kichik ulushga ega bo'lishi ROA ko'rsatkichining barqarorligiga ehtiyotkor ta'sir ko'rsatgan, chunki kichik aktivlar bazasida rentabellik ko'proq sezgir bo'ladi. Demak, ROA past bo'lgan banklarda tadbirkorlikni moliyalashtirishning barqaror mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, kredit portfelining tebranishi yuqoriroq bo'lgan.

ROA faqat kredit hajmi bilan emas, balki kredit portfeli sifati bilan ham bevosita bog'liq. 2020–2025-yillarda tadbirkorlik kreditlariga talab oshgani sari risk darajasi ham o'zgaragan. Ba'zi banklarda kreditlashning keskin oshishi NPL (to'lov muddati o'tgan kreditlar) ulushining ko'payishiga olib kelishi mumkin, bu esa ROAni kamaytiradi. Ammo yirik banklar risklarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilganligi sababli kredit portfelining sifati asosan barqaror qolgan.

ROAning yuqoriligi banklar kredit portfeli diversifikatsiya qilganini, risklarni boshqara olganini va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda barqarorlikka erishganini anglatadi. 2020–2025-yillar bank tizimida jadal transformatsiya yillari bo'ldi. Bu jarayonda ROA quyidagi strategik funksiyalarni bajargan:

- 1) Moliyaviy barqarorlik indikatoriga aylandi

Banklar o'z kredit siyosatini aynan ROA darajasiga qarab optimallashtirdi.

- 2) Tadbirkorlikni moliyalashtirishning kengayishiga katalizator bo'ldi

ROA yuqori banklar ko'proq resurslarni KOB (KO'B) sektoriga yo'naltira oldi.

- 3) Investitsion jalb etuvchanlikni oshirdi

ROA yuqori banklar xalqaro moliyaviy institutlardan yirik kredit liniyalarini jalb qila oldi.

- 4) Raqobat muhitini kuchaytirdi

ROA barqaror bo'lgan banklar bozorda yetakchilikni qo'lga kiritdi.

Umuman olganda, 2020–2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarining aktivlar rentabelligi darajasi tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish tizimining rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. ROAning o'sishi:

- kreditlar hajmining kengayishi,
- bank kapitalining mustahkamlanishi,
- risklarni boshqarish tizimining yaxshilanishi,
- foizli daromadlar bazasining kengayishi,
- tadbirkorlik subyektlariga taklif etilayotgan kredit mahsulotlarining ko'payishi

kabi jarayonlar bilan ushbu sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy asosini shakllantirgan.

ROA past bo'lgan yoki keskin tebranган banklarda tadbirkorlik kreditlari o'sishi barqaror bo'lmagan. Bunday holatlar kredit portfelining sifati, risk siyosati yoki transformatsiya jarayonlarining murakkabligi bilan izohlanadi.

Demak, bank aktivlari rentabelligi O'zbekistonning transformatsiya sharoitida tadbirkorlikni moliyalashtirish tizimining asosiy drayver omillaridan biri sifatida namoyon bo'lgan.

Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion).

Kichik biznes sub'ektlari faoliyatida avvalambor sohalarni aniqlash va raqamlashtirish ta'siri ostida ulardagi o'zgarishlarni tavsiflash korxonaning raqamli texnologiya strategiyasini rejalashtirishning boshlanishi bo'lishi mumkin. 2020–2025-yillar O'zbekiston bank tizimi uchun jadal transformatsiya, bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi va moliyaviy vositachilikning tubdan yangilanish davri bo'ldi. Mazkur jarayonlar tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Keltirilgan statistik ma'lumotlar, banklar kesimidagi dinamikalar, aktivlar rentabelligi (ROA) va kredit portfeli hajmining o'zgarishi asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin.

Birinchi, 2020–2025-yillar davomida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish hajmi keskin oshdi. 2020 yilda 3,0 trln so'm bo'lgan kreditlar hajmi 2025 yilda 57,1 trln so'mga yetib, besh yil ichida 19 baravardan ortiq o'sdi. Bu transformatsiya davrining bank kreditlash tizimiga bo'lgan kuchli ta'siri, xususan kreditlashning liberallashtirish, yangi moliyaviy mahsulotlar paydo bo'lishi va mobil-bank xizmatlarining keng joriy etilishi natijasidir.

Ikkinchidan, kreditlar o'sishi banklar bo'yicha notekis kechdi. "Milliy bank", "Xalq banki" va "Sanoatqurilishbank" eng yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etib, tadbirkorlik segmentida yetakchi o'rinlarni egalladi. Aksincha, ayrim banklarda (masalan, "Asakabank", "Aloqabank") kredit portfeli yillar kesimida sezilarli tebranishlar kuzatildi, bu esa transformatsiya jarayonlarining ularning ichki moliyaviy barqarorligiga turlicha ta'sir qilganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, kredit portfelining kengayishi tijorat banklarining aktivlar rentabelligi (ROA) darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Rentabellik darajasining oshishi banklarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish salohiyatining ortishiga zamin yaratdi. ROA yuqori bo'lgan banklar risklarni qoplash imkoniyatiga ega bo'lib, kreditlashni keng ko'lamda amalga oshirishga intildi. Shu bilan birga, ROA past yoki tebranma bo'lgan banklarda kreditlash siyosati ehtiyotkorlik bilan yuritildi, bu esa tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish hajmiga cheklolvar keltirdi.

To'rtinchidan, kreditlashdagi tebranishlar banklar riskni boshqarish siyosatining qayta ko'rilyotgani, kredit portfeli sifati va NPL darajasining dinamikasi bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Transformatsiya jarayonlari banklar oldiga kredit portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida baholash, kafillik va sug'urta mexanizmlaridan keng foydalanish kabi yangi talablarni qo'ydi.

Beshinchidan, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish tizimining rivojlanishida raqamlashtirish asosiy omillardan biridir. Banklar tomonidan mobil ilovalar orqali kreditlash, kredit scoring tizimlarining joriy etilishi, masofaviy identifikatsiya kabi innovatsion texnologiyalar kredit olish jarayonini ancha tezlashtirdi, arzonlashtirdi va shaffoflashtirdi.

Oltinchidan, transformatsiya davrida kredit bozoridagi raqobat kuchaydi. Banklar sonining ko'payishi, davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarning restrukturizatsiya qilinishi, yangi talablar va bozor mexanizmlarining joriy etilishi natijasida tijorat banklari o'rtasida tadbirkorlik segmenti uchun kurash yanada kuchaydi. Bu jarayon kredit shartlari yaxshilanishiga, foiz stavkalarining moslashuvchan bo'lishiga va mijozlar uchun tanlov imkoniyatining ortishiga olib keldi.

Yettinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik (EBRD, ADB, KfW, OTB va boshqalar) kredit resurslari bazasining kengayishi va uzoq muddatli past foizli kredit liniyalarining mavjud bo'lishi orqali banklar kreditlash salohiyatini oshirdi. Bu ham ROA ko'rsatkichining barqarorlashishiga, ham tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan kirish imkoniyatining yaxshilanishiga xizmat qildi.

Umuman olganda, 2020–2025-yillarda O'zbekistonning tijorat banklari tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish bo'yicha yangi bosqichga ko'tarildi. Kredit portfelining kengayishi, rentabellik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, raqamli texnologiyalar joriy etilishi va transformatsiya jarayonlarining to'g'ri yo'naltirilishi banklarning iqtisodiyotni real sektor orqali qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini keskin kengaytirdi. Shu bois, banklarning aktivlar rentabelligini oshirish, kredit portfelining sifatini yaxshilash, innovatsion moliyalashtirish vositalaridan keng foydalanish va raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish kelgusida tadbirkorlikni moliyalashtirish tizimining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Aubakirova, G. M., et al. (2020). Impact of digital technologies on socio-economic systems. Almaty: Economic Research Institute.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies. New York: W. W. Norton.
3. Gafurov, U. V. (2018). Mechanisms of state regulation of small business development. Tashkent: Economics Press.
4. Hodiev, B. Y., & Salayev, S. K. (2019). Modeling and forecasting small business development trends. Tashkent: Science Publishing.
5. Lapucta, M. (2016). Small business theory and practice. Warsaw: Economic Publishing House.
6. Muftaydinov, Q. (2020). The economic role of small business in market systems. Tashkent: Innovatsiya Nashriyoti.
7. OECD. (2021). Financing SMEs and entrepreneurs: An OECD scoreboard. Paris: OECD Publishing.
8. Olmasov, A., & Sharifkhodjaev, M. (2017). Entrepreneurship: Essence and economic mechanisms. Tashkent: Fan.
9. Payne, A., & Frow, P. (2017). Strategic customer management: Integrating CRM and multichannel marketing. Cambridge University Press.
10. Schwab, K. (2016). The fourth industrial revolution. Geneva: World Economic Forum.